

SHUKUR XOLMIRZAYEV ROMANLARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

Namangan davlat universiteti, O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi professori, f.f.n.

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-9423-6274

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986333>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev romanlarida obraz yaratish mahorati tahlil qilingan. Adibning xususan, “Olabo‘ji” romani misolida qahramon xarakterini ochish usullari, psixologik tasvir vositalari, ichki monolog, portret va badiiy detalning funksional ahamiyati yoritilgan. Maqolada yozuvchining obraz yaratishda realistik tamoyillarga tayangan holda milliy ruh, davr muammolari hamda insoniy kechinmalarni chuqur va ta’sirchan ifodalash mahorati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, obrazlar tizimining o‘zaro bog‘liqligi, konflikt va muhit tasvirining qahramon xarakterini shakllantirishdagi o‘rni tahlil etilgan

Kalit so‘zlar: roman, obraz, badiiy mahorat, xarakter, tip, psixologizm, ichki monolog, badiiy detal, portret, konflikt, realizm, milliy ruh, ijtimoiy muhit, obrazlar tizimi.

Аннотация: В данной статье анализируется мастерство создания образов в романах Шукur Xolmirzayev. В частности, на примере романа «Olabo‘ji» раскрываются способы раскрытия характера героя, средства психологического изображения, а также функциональное значение внутреннего монолога, портрета и художественной детали. В статье научно-теоретически обосновывается мастерство писателя в глубоком и выразительном отражении национального духа, проблем эпохи и человеческих переживаний на основе реалистических принципов. Также анализируется взаимосвязь системы образов, роль конфликта и изображения среды в формировании характера героя.

Ключевые слова: роман, образ, художественное мастерство, характер, тип, психологизм, внутренний монолог, художественная деталь, портрет, конфликт, реализм, национальный дух, социальная среда, система образов.

Abstract: This article analyzes the mastery of character creation in the novels of Shukur Xolmirzayev. In particular, based on the novel Olabo‘ji, the study examines the methods of revealing the protagonist’s character, the means of psychological depiction, as well as the functional significance of inner monologue, portrait, and artistic detail. The article theoretically substantiates the writer’s skill in deeply and expressively portraying the national spirit, the problems of the эпоха (era), and human experiences within the framework of realist principles. It also analyzes the interrelation of the system of characters and the role of conflict and environment in shaping the protagonist’s character.

Keywords: Shukur Xolmirzayev, novel, character, artistic mastery, personality, type, psychologism, inner monologue, artistic detail, portrait, conflict, realism, national spirit, social environment, system of characters.

Kirish

O‘zbek adabiyotining XX asr ikkinchi yarmi taraqqiyotida Shukur Xolmirzayev ijodi alohida o‘rin tutadi. Adib nasrda, xususan, roman janrida inson ruhiyati, jamiyat muammolari va davr ziddiyatlarini chuqur badiiy tahlil qilish orqali milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning asarlarida hayotiylik, realizm va psixologik teranlik yetakchi o‘rinni egallaydi.

Shukur Xolmirzayev romanlarida obraz yaratish masalasi yozuvchi mahoratining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Xususan, “Olabo‘ji” romanida qahramon xakteri murakkab ruhiy kechinmalar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy muhit ta’siri orqali ochib beriladi. Yozuvchi portret, badiiy detal, ichki monolog, dialog va peyzaj kabi tasvir vositalaridan unumli foydalanib, obrazni jonli va ishonarli shakllantiradi.

Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev romanlarida obraz yaratish mahorati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qahramon xarakterining shakllanish jarayoni, obrazlar tizimining o‘zaro bog‘liqligi hamda konflikt va muhitning badiiy funksiyasiga qaratiladi.

Har bir davr o‘z muammosi, konsepsiyasi, poeziyasi va qiyofasiga ega bo‘ladi. Bu hol nafaqat odam, balki jamiyat faoliyatiga ham ta’sir qilib, uning yo‘nalishini ham belgilaydi. Ma'lumki,

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

hayotdagi har bir o‘zgarish inson faoliyatisiz kechmaydi. Bu o‘zgarishlar, yaratishlar inson sa’y-harakati, uning dunyoqarashi, konsepsiyasiga bog‘liq. Akademik D.S.Lixachev qayd etgandek, “davri insonni chetlab, hech narsa yaratmaydi. Davri inson va uning maqsadi orqali tasvir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir”. Bu jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, siyosiy ma’rifiy va ma’naviy qarashlarni inson qalb tug‘yonisiz, iztirobsiz, ma’naviy dunyosiz tasavvur qilish mumkin emas. Inson – bu umumiy tushuncha. Inson deganda biz ko‘proq unda mujassamlashgan umuminsoniy, abadiyatga daxldor tomonlarni nazarda tutamiz. Bunday tomonlardan biri va eng muhimi – tafakkur. Inson tafakkurida o‘zgarish bo‘lmas ekan, hech bir ijtimoiy narsada o‘zgarish bo‘lishi dushvordir. Inson tafakkuridagi o‘zgarish davri va jamiyatdagi o‘zgarish ta’sirida bo‘lishi tabiiy hol, o‘z navbatida, jamiyatning to‘g‘ri yo‘nalishini belgilash bilan birga, o‘zining hayotdagi o‘rni va mavqeyini ham namoyon hamda insoniyat diqqatini jalb qiladi. Bu narsa o‘zbek romanlarida o‘z ifodasini topyapti.. Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o‘zi, uning o‘y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, ruhiy olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanyapti, ochib berilyapti.

Roman “zamondan oziqlanadi, zamon esa undan o‘z qiyofasini qidiradi, uning vositasida o‘zini yanada yaxshiroq anglashga harakat qiladi”. Bu ayni haqiqatdir. Chunki romanda zamon va davri qiyofasi o‘z ifodasini topadi. Shukur Xolmirzayevning romanlarini o‘qigan kishi bunga ishonch hosil qiladi. Adib romanlarida obraz yaratish jarayoni hayotiylik va psixologik teranlik tamoyillariga asoslanadi. Yozuvchi qahramonni tayyor sxema yoki qolip asosida emas, balki muayyan ijtimoiy muhit va ruhiy kechinmalar tizimida tasvirlaydi. Natijada obraz individual xarakter darajasiga ko‘tarilib, davrning muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolarini o‘zida mujassamlashtirgan badiiy timsolga aylanadi.

Adibning “Olabo‘ji” romanida bosh qahramon obrazi murakkab ichki ziddiyatlar orqali ochiladi. Qahramon ruhiyati ichki monologlar, iztirobli kechinmalar va tafakkur jarayoni orqali yoritilib, uning xarakteri bosqichma-bosqich shakllanadi. Yozuvchi psixologik tasvir vositalaridan keng foydalanib, inson qalbidagi nozik tebranishlarni tabiiy va ishonarli aks ettiradi. Bu esa obrazning badiiy mukammalligini ta’minlaydi.

Shukur Xolmirzayev obraz yaratishda portret va badiiy detalga alohida e’tibor qaratadi. Qahramon tashqi qiyofasi, mimika va harakatlaridagi mayda chizgilar uning ichki dunyosi bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Badiiy detal esa xarakter mohiyatini ochuvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan yozuvchi obrazni tashqi va ichki tasvir uyg‘unligida yaratadi.

Roman asli arxiolog, lekin tabiatshunos jurnalist sifatida elga tanilgan, keyingi yillarda o‘z qishlog‘iga kelib, maktabda tabiatdan dars berayotgan, ovchilik bilan mashhur, ustunlar ustiga qurilgan g‘ayritabiiy hujrada yakka yashayotgan Ultonni raykomning birinchi sekretari To‘qiliboy Qo‘chqorov taklif qilishidan boshlanadi. Shu tariqa kitobxon romanning bosh qahramoni bilan tanishadi. Uning qanday shaxs ekanligi ba’zi bir asarlardagi kabi yozuvchining bergan ta’rifi bilan anglashilmaydi, balki voqealar olamida qadama-qadam bo‘y ko‘rsatadi. Ya’ni uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har bir voqeada bir insoniy fazilati va o‘ziga xosligi ochiladi. Voqealar zamirida esa ijtimoiy-siyosiy masalalar yotadi. Ulton har xil xayolga borib, maxsus yuborilgan sovxoz direktori Bo‘taboy So‘piyevning “Gazigi”da raykomga kelganda, o‘zining sobiq o‘qituvchisi, hozirda raykom sekretari To‘qiliboy quchoq ochib kutib oladi. Hazil-mutoyiba gaplardan so‘ng, maktab haqida gap ochdi. Maktab direktori Zokir O‘runovning maktabning avariya holati xususida yozmagan joyi qolmaganiga qaramay, bu borada bir odam uning dodiga quloq osmasdi. Bugun esa raykomning kotibi maktab bilan qiziqishi uni nihoyatda xursand qildi. Buning ustiga, kotibning: “Gap shu, seni chaqirishdan ham murod shuki, xo‘sh, senga ishonaman”, – dedi. – Shu maktabingni bizning nomimizdan... raykomning vakili sifatida tekshirib, bor kam-ko‘stini yozib kelsang... Xo‘sh, qolgan mana shu o‘n-o‘n besh kunda nimalar qilib ulgurish mumkin, ana shu tomonlariniyam o‘ylab yozasan”. Bizga ma’lumki, maktab masalasi har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan, bugungi kunda ham shunday. Unga yuqori lavozimli rahbarning e’tibor berishi u odamning yaxshi insonligidan dalolat beradi. Demak, To‘qiliboy ham bizga shunday inson sifatida taassurot qoldiradi.

Ulton kotibning mazkur tutgan ishidan mamnun bo‘lib, eshikka yo‘nalgan edi, burchakdagi kimsani ko‘rib, hayron qoldi. “U oppoq, ityoqa ko‘ylak va yo‘l-yo‘l beqasam yubka kiygan, bir qarich qoldirib kesilgan tim-qora sochi yelkasiga tushgan, charos ko‘zlari qandaydir chaqnoq qiz... Oqsuvdagi ambulatoriyaning bosh do‘xtiri edi”. Yozuvchi romandagi ikkinchi faol qahramon – Bahor bilan shu tariqa tanishtiradi. Zohiriy jihatdan har qanday erkakni o‘ziga jalb qila oladigan bu xilqatni Ulton bilardi, unga nisbatan ichki bir intilish ham bor edi. Bunga sabab o‘tgan yili Ulton ov qilib yurganda yuzidan sochma o‘q yegandi. Kimnidir ovga otgan o‘qi uning yuziga tekkandi. U

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

shoshilinch ambulatoriyaga kelganda, unga tez yordam ko‘rsatib, yuzidagi sochmalarni sitib tashlab, “Tez yordam” orqali rayon kasalxonasiga jo‘natgan edi. O‘shanda Ultonni uning o‘ktamligi, qandaydir kishini sehrlaydigan jozibasi lol qoldirgan edi. Ayniqsa, glavrachini so‘tak deyishi, uni tamom taajjubga solgan edi. O‘shandan beri Ultonda unga nisbatan qiziqish paydo bo‘lgan. Lekin Bahor u uchun juda balandda o‘sgan gul, uzib olishga o‘zining bo‘yi yetmasligiga iqrar bo‘lib yurardi. Bugun esa o‘ziga yaqin bo‘lgan Bo‘taboy So‘piyevning shofyori Nabi “Bahor unga qiziqayotgani, uii yoqtirib qolganligini” aytdi. Bularning bari qo‘shilib raykom xonasidagi uchrashuv, buning ustiga, Bahorning unga nisbatan o‘zini yaqin olishidan, orzularining amalga oshishiga yo‘l ochilgandek his qildi, o‘zini. Bu uchrashuv kotibning: “... Mana, Kenjaboyeva ham sen bilan boradi... Xo‘sh, Bahor, siz maktabning gigiyena-sanitariya talablariga qanchalik javob berish-bermaslik masalasini aniqlaysiz. Vazifa – shu. Keyin zaklyucheniyani bitta qilib opkelasiz. Tushunarlimi” – degan gapi bilan o‘z nihoyasini topadi.

Adib hyech bir voqeani shunchaki tasvirlamaydi, barchasini maqsad sari yo‘naltiradi. Mazkur voqea ham uch maqsadga hizmat qiladi. Ya‘ni faol qahramonlarning kimligini ochib berishga, maktab masalasida mutasaddi shaxslarning diqqatini jalb qilishga va Ulton bilan Bahorni yaqinlashtirishga.

To‘qiliboy Qo‘chqorovning xatti-harakati dastlab kishida hayrihohlik uyg‘otadi: u harakatchan, quvnoq, she‘riyatga moyil, o‘zi ham ijod qiladi. Har gapida Mashrab g‘azallaridan misol keltirib, aqlli fikrlarni aytdi. Muhimi odamlardan o‘zini ayri tutmaydi, barchaga birday muomala qiladi. Sirtidan qaragag‘tda, ibratli rahbar. Lekin asarni o‘qish davomida kitobxon uning asl qiyofasini to‘liq ko‘radi. Yozuvchi ham u haqida kitobxon o‘zi xulosa chiqarishiga qo‘yib beradi.

Romanda konflikt muhim badiiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramon va muhit o‘rtasidagi ziddiyat, shaxsiy orzu-intilishlar bilan ijtimoiy talablar to‘qnashuvi obrazning dinamik rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Konflikt orqali qahramonning qat‘iyati, irodasi, ma‘naviy qarashlari sinovdan o‘tadi va karakter yanada chuqurlashadi.

Bundan tashqari, yozuvchi obrazlar tizimini yaxlit kompozitsion asosda quradi. Ikkinchi darajali obrazlar ham bosh qahramon xarakterini ochishda faol ishtirok etadi. Ular muayyan g‘oyaviy yuklama va ijtimoiy ma‘noga ega bo‘lib, asarning umumiy badiiy konsepsiyasini to‘ldiradi.

Roman shunday yakun topadi: “Ulton madrasaga (jinnixonona binosi oldin madrasa bo‘lgani uchun odamlar uni shunday atashadi) jo‘natilgandan keyin, Ashim bir-ikki marta xabar oldi. Bir gal qalin kiyimlar oborib berganida, Berdi do‘xtir: “Endi kelib yurmang”, – degan ekan. Lekin bu narsa kishilarni hayron qoldiradi: yetimcho‘qida odamsimon ayiq paydo bo‘lgan. Yurishiyam ayni ayiqniki: engashib, bo‘kirib-g‘o‘ldirab yurarmish. Va o‘qtin-o‘qtin shaharga yaqin kelib bir g‘or usgida o‘tirarmish... yosh bolalar sho‘xlik qilsa, onalar endi bitta so‘z bilan qo‘rqitishadi: “Olabo‘ji kelyapti!”.

Bu tugallanma ikki ma‘noga ega. Ya‘ni, birinchisi, fosiqlik dunyosi jamiyat halol, to‘g‘riso‘z, tabiiy bir insonni “Olabo‘ji”ga aylantirdi. Ikkinchisi, jamiyatning o‘zi fosiqlik asosiga qurilgani uchun haqiqatdan “Olabo‘ji”dan qo‘rqanday qo‘rqadi. Chunki haqiqat kuchli, baribir u yengadi. Asar voqealari zamiridan kelib chiqadigan g‘oya shundan iborat.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev romanlarida obraz yaratish mahorati realizm, psixologizm va milliy ruh uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi inson xarakterini chuqur tahlil qilish orqali nafaqat alohida shaxs taqdirini, balki butun bir davrning ma‘naviy-ijtimoiy qiyofasini ham badiiy jihatdan mukammal aks ettiradi.

Shukur Xolmirzayev romanlarida obraz yaratish mahorati o‘zbek nasrida psixologik realizmning yuksak namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Adib qahramon xarakterini ijtimoiy muhit, davr ziddiyatlari va ichki ruhiy kechinmalar uyg‘unligida tasvirlab, obrazni hayotiy va ishonarli darajaga olib chiqadi.

Xususan, “Olabo‘ji” romanida bosh qahramonning murakkab ruhiy olami ichki monolog, portret, badiiy detal va konflikt vositasida bosqichma-bosqich ochib beriladi. Obrazlar tizimining yaxlitligi, ikkinchi darajali qahramonlarning funksional ahamiyati ham asarning g‘oyaviy-badiiy mukammalligini ta‘minlaydi.

Shu bois, Shukur Xolmirzayev romanlarida obrazlar nafaqat individual karakter, balki muayyan tarixiy davr va ijtimoiy muhitning badiiy ifodasi sifatida ham qadrlidir. Yozuvchining obraz yaratish borasidagi mahorati o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi va bugungi adabiy jarayon uchun ham ibratli ijodiy tajriba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Hamidova M. Badiiy tasvir va uslub qirralari: Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2024.- 188 b.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

2. Лихачев Д. С. Текстология: На материалах русской литературы X - XV веков. - Л., 1983.- С.37.
3. Xolmirzayev Sh. Olabo‘ji: roman.- Toshkent: “Ziyonashr” nashriyoti, 2023.-608 b.
- 4.Зондиев А. Тропы времени. - М., 1984. - С. 3-4.